

SHARQ MINIATYURA SAN’ATI ASARLARI NAMUNALARIDAN NUSXA KO‘CHIRISH MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Nurullayeva Nozima Izzatulloevna

5-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi o‘qituvchisi

Maqolada nusxa ko‘chirish mashg‘ulotlarini tashkil etishning asosiy usullari , o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda miniatyura san’ati o‘rni , hamda amaliy mashg‘ulotlarda an’anaviy usullarni qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan . Shuningdek , ushbu mashg‘ulotlar sharq madaniy merosini o‘rganish va qadrlashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida tavsiya etiladi.

Sharq miniatyura san’ati dunyo san’at tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan nozik va nafis san’at turi hisoblanadi . Bu san’at usuli asosan O‘rta Osiyo , Eron , Hindiston va Turkiy xalqlar madaniyatida rivojlangan. Ushbu miniatyuralar o‘zlarining murakkab kompozitsiyasi , detallariga katta e’tibor qaratilishi va yorqin ranglar bilan bezatilgani bilan ajralib turadi . Tasviriy san’at ta’limida ushbu asarlarning o‘quv jarayoniga kiritilishi ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Sharq miniatyura san’ati o‘zining murakkabligi va chuqur madaniy merosga ega bo‘lgani sababli , o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etish uchun noyob vositadir. Bu san’at turi tafsilotlar , chiziqlar va ranglarning uyg‘unligi asosida yaratilgan . Nusxa ko‘chirish orqali o‘quvchilar nafaqat texnik mahoratni rivojlantiradilar , balki qadimiy madaniyatlar bilan yaqindan tanishadilar. Shu nuqtai nazardan sharq miniatyura san’ati namunalarini tasviriy san’at fanida o‘rgatish o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini va texnik bilimlarini chuqurlashtiradi .

1. San’at pedagogikasi : Sharq miniatyura san’atidan nusxa ko‘chirish pedagogic nuqtai nazardan o‘quvchilarga murakkab chizmalarni aniqlik bilan bajarish ko‘nikmasini beradi . Bu usul o‘quvchilarning ko‘z va qo‘l koordinatiasini , diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi. San’at nazariyasida nusxa ko‘chirish o‘quvchilarga ustozlar tajribasini o‘rganish va bu tajribani o‘z ijodiy ishlarida qo‘llash imkonini beradi .

2. Kreativ rivojlanish : Sharq miniatyura san’atini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi . Nusxa ko‘chirish o‘quvchilarning texnik mahoratni egallashi bilan birga ularga o‘z ijodiy yondashuvini topishga yordam beradi . Miniatyuralardagi murakkab kompozitsiyalarni tushunish va ularni takrorlash orqali o‘quvchilar o‘zining badiiy imkoniyatlarini rivojlantiradi .

3. Madaniy merosni o‘rganish : Sharq miniatyura san’ati nafaqat san’at asari , balki muhim madaniy merosdir . O‘quvchilarga bu san’at bilan tanishish ularning tarixiy va madaniy bilimlarini oshirishga xizmat qiladi . Nusxa ko‘chirish orqali o‘quvchilar tarixiy asarlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganadilar va san’atdagi milliy va madaniy o‘ziga xosliklar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘ladilar.

4. Psixologik yondashuv : O‘quvchilarning badiiy ijodiyot jarayonidagi rivojlanishi psixologik jihatdan ham tahlil qilinadi. Nusxa ko‘chirish sabr-toqatni oshiradi va detallarga e’tibor qaratishni o‘rgatadi . Bu jarayon o‘quvchida o‘z – o‘zini nazorat qilish ,



ijodiy shijoat va barqarorlikni shakllantiradi . Buning natijasida ijodkorlik faqat texnik emas, balki psixologik jihatdan ham mustahkamlanadi .

Sharq miniatyura san’ati asarlarini o’rganishda nusxa ko’chirish mashg’ulotlari o’quvchilarga nafis chizish texnikasi , ranglar uyg’unligi va ijodiy ko’nikmalarni rivojlantirish uchun juda muhimdir . Quyida ushbu mashg’ulotlarni samarali tashkil etishning asosiy usullari keltirilgan :

1. Bosqichma – bosqich yondashuv .

Nusxa ko’chirish jarayonini bosqichma – bosqich rejalashtirish o’quvchilarga murakkab miniatyuralarni o’zlashtirishda katta yordam beradi . Har bir bosqichda ma’lum bir ko’nikma yoki texnika o’rgatiladi , bu esa jarayonni tushunarli va izchil qiladi .

• Bosqichlar :

- Dastlabki eskizlar chizish
- Kompozitsiyani aniqlash
- Chiziqlar va tavsilotlarni ishlab chiqish
- Ranglarni uyg’unlashtirish va qo’llash
- Yakuniy ishlov va tugatish

Bu usul orqali o’quvchilar murakkab miniatyuralarni qismlarga ajratib , ularni aniq va izchil amalga oshiradilar .

2. Vizual namoyish va tahlil

Mashg’ulotni boshlashdan oldin , o’qituvchi sharq miniatyura san’atining namunalari bilan tanishtirishi va ularni tahlil qilishi lozim . Bu o’quvchilarga kompozitsiya , uslub va ranglarning qo’llanilishini tushunishga yordam beradi .

• Usullar :

- Miniatyura namunalari ustida guruhli muhokama qilish
- Video va slaydlar yordamida asarlarni ko’rsatish
- Asarlarning asosiy elementlarini tahlil qilish

Vizual tahlil o’quvchilarni asarning estetik va texnik xususiyatlari bilan tanishtiradi .

3. Nusxa olish uchun qulay asarlarni tanlash.

Dastlabki mashg’ulotlar uchun oddiyroq miniatyura namunalari tanlanadi. Murakkab miniatyura asarlaridan nusxa ko’chirish uchun avval o’quvchilarni sodda elementlardan boshlash maqsadga muvofiqdir.

• Asar tanlash mezonlari:

- Murakkablik darajasi past bo’lgan miniatyuralar
- Ranglar va chiziqlarni oddiy shaklda o’z ichiga olgan asarlar
- An’anaviy elementlarga ega bo’lgan nusxalar

Bu usul o’quvchilarga miniatyuraning texnikasini osonroq o’zlashtirishga yordam beradi .

4. Amaliy yordam va nazorat

Mashg’ulot davomida o’quvchining muntazam yordam berishi va jarayonni nazorat qilishi zarur. Bu orqali o’quvchilar xatolarni vaqtida tuzatishlari va texnikalarni tog’gri bajarishlari mumkin.

• Yordam shakllari :



- Har bir o‘quvchi bilan alohida ishlash
- Ish jarayonini kuzatish va muammolarni aniqlash
- Misollar orqali ko‘rsatib berish

Nazorat va o‘quvchilarga beriladigan tavsiyalar ularga texnik ko‘nikmalarni puxta egallashga yordam beradi.

5. Ijodiy yondashuvni qo‘llab – quvvatlash

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga sharq miniatyura san‘ati qoidalarini o‘rganish bilan birga, o‘z ijodiy yondashuvlarini qo‘llash imkoniyatini berish lozim . Ular nusxa ko‘chirish orqali o‘rganilgan bilim va texnikani o‘z ijodiy ishlarida tadbiq etishlari kerak.

- Ijodiy yondashuvni shakllantirish :
- O‘quvchilarga asarni qayta interpretatsiya qilish imkonini berish
- Yangi ranglar yoki texnikalarni sinashga rag‘batlantirish
- O‘zlariga xos elementlarni qo‘shishga ruxsat berish

Bu usul o‘quvchilarning ijodiy potensialini rivojlantirib , musataqil ijod qilishga undaydi.

6. Portfolio va ishlar yig‘ma to‘plami

Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar yaratgan ishlardan portfolio tuzish o‘quvchilarga o‘z yutuqlarini va rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Bu jarayon ularning ijodiy taraqqiyotini baholash va o‘z ishlaridan o‘rganish imkonini yaratadi.

- Portfolio afzalliklari :
- O‘quvchilar o‘z ishlari va tajribalarini tahlil qilishi
- O‘z yutuqlari va kamchiliklarini ko‘rib chiqishi
- Har bir nusxa ustida qayta ishlash va takomillashtirish

Portfolio o‘quvchilarga kelgusidagi ijodiy ishlarida foyda beradigan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

7. Gamifikatsiya va rag‘batlantirish

Gamifikatsiya o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishini oshirish va ularni faolroq jalb qilish uchun samarali usuldir. Nusxa ko‘chirish mashg‘ulotlariga o‘yin elementlarini kiritish o‘quvchilarni yanada ko‘proq qiziqtiradi va ularning ijodiy ishlari uchun rag‘bat beradi.

- Gamifikatsiya shakllari :
- Kichik tanlovlar o‘tkazish (eng yaxshi nusxa ko‘chiruvchi)
- Qiziqarli topshiriqlar (masalan, belgilangan vaqt Ichida chizma tayyorlash)
- O‘yincha mukofotlar va ballar tizimi

Bu usul o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Nusxa ko‘chirish mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun bosqichma-bosqich yondashuv, amaliy yordam , ijodiy yondashuv va rag‘batlantirish kabi usullarni qo‘llash zarur. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularni ijodiy jihatdan ham shakllantiradi. Mashg‘ulotlarning tizimli va qiziqarli bo‘lishi o‘quvchilarga san‘atni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi .



Xulosa qilib aytganda tasviriy va amaliy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda miniatyura san'atining o'rni hamda amaliy mashg'ulotlarda an'anaviy usullarni qo'llash imkoniyatini yaratadi. Qolaversa pedagogik mahoratni rivojlantirishda xizmat qiladi. Shuningdek ushbu mashg'ulotlar sharq madaniy merosini o'rganish va qadrlashga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Abdirasilov S. “ Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi ”. O‘quv qo‘llanma - Toshkent. Ilm – Ziyo , 2011 y
2. B.Boymetov , O‘.Nurtayev . “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish ”. O‘quv qo‘llanma – “ IQTISOD MOLIYA ”, 2007-98 6
3. Azizxodjayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahurat . T. “Adabiyot jamg‘armasi ”, 2006y
4. Sultonov X.E. “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish ”. O‘quv qo‘llanma -Toshkent . “ History and page ”, 2022-160 bet .